

**O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALAR SINFLARIDA ONA TILI DARSLARINI  
TASHKIL ETISH**

**Omonqulova Mohinur Zokir qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi,  
Jizzax viloyati Do'stlik tumani 3- umumta'lim maktabining Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining o'smirlik davridagi bolalardan iborat sinflari, ya'ni 7-8-9- sinflarda ona tili darslarining ahamiyati, vazifalari, darslarni samarali va zamonaviy metodlar asosida tashkil etish va metodlarni bolalar sinflariga mos tarzda to'g'ri tanlash haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *O'smirlik davri, o'quv faoliyatidagi motivlar, zamonaviy metodlar, interfaol usullar.*

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalardan biri butun jahon olimlarining qaroriga ko'ra, 1965-yili Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. Bu B.G.Ananev va Birrenlar tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyaga yaqin bo'lib, umumlashtirilgan toifalash sxemasidir. Bu toifalash sxemasiga asosan o'smirlik davri o'rtacha 13- 16- yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu umumta'lim maktablarining 7-8-9-sinflariga to'g'ri keladi.

O'smir shaxsining takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri-o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlaridir. Kichik maktab yoshidagi bolalardan farqli o'laroq, o'smir endi faqat bilimga ega bo'lishi, o'qituvchi maqtovini eshitish va "5" baho uchun harakat qilish emas, balki o'z tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi inson bo'lish uchun o'qish motivlari ustuvor bo'lib boradi. I.V.Dubrovinaning bergan ma'lumotlariga ko'ra bu davrda bolalarda o'quv faoliyati motivlari orasida yangi bilimlarga ega bo'lish motivlari kuchsiz bo'lganligi sababi o'rtacha har bir sinfning 20% o'quvchisida maktabga borgisi kelmasligi, dars mashg'ulotlariga og'rinib qatnashishi, salbiy emotsiyalar va xavotirlilik hislarini boshdan kechiradilar.

Umumta'lim maktablarida ona tili darslarini samarali tashkil qilish avvalo o'quvchi yoshlarning savodxonligini oshirish, ularning yozma va og'zaki nutqlarini oshirish, shaxsiy fikrini orfoepik qoidalar asosida bayon qilish va orfografik qoidalar asosida yoza olish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ona tili darslarida zamonaviy metodlardan va interfaol usullardan foydalanish fanning oldiga qo'ygan maqsadini yanada samarali amalga oshirishini va o'quvchilarda mavzuga nisbatan tasavvur va bilimlarning shakllanishini ta'minlaydigan omillardan biridir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonlarida "aqliy hujum", "muzyorar", "baliq skeleti", "sinkveyn", "zanjir" kabi metodlar tez tez qulog'imizga chalinib turibdi. Bu metodlardan deyarli barcha o'qituvchilar o'z darslarida foydalanib bo'lishgan. Bitta sinfdagi bir xil metodlarni takror qo'llash o'quvchilarni, ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarni tez zeriktirishi va fanga bo'lgan qiziqishi, ishtiyoqini so'nib borishiga olib kelishi mumkin. Metodlarni to'g'ri tanlash ham o'qituvchidan kata mashaqqat talab etadi, chunki har bir metodni sinfdagi bolalar psixologiyasidan kelib chiqib tanlash lozim. Kichik guruhlarda ishlash orqali mavzuning

tushunariligi, o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda baholash mezonlari buzilganda, o'qituvchi tomonidan demokratik tamoyillar asosida adolat bilan baholanmasa, rag'batlantirilmasa sinf o'quvchilari o'rtasida o'zaro adovat kayfiyatini uyg'otib qo'yishi va bu jarayon o'smir bolalarda juda tez rivojlanib qolishi mumkin. Bunday vaziyatlar pedagogdan kuzatuvchanlikni, metodlarni tanlash va ularni o'tkazish jarayonida extiyotkorlikni taqozo etadi. Metodlarni tanlashda o'sha metodning aynan nizomda ko'rsatilganidek tashkil qilish shart emas. Ularning sinf o'quvchilar soni, darsga tayyorgarligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda o'qituvchi pedagog tomonidan biroz o'zgartirishlar kiritsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim sohasi tez tez yangilanishlarni, yangi g'oyalarni talab qiladigan soha hisoblanib, o'qituvchi pedagogdan kreativlikni, doimo harakatda, izlanishda bo'lishni talab etadi. Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni tashkil etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi mumkin. Dars mashg'ulotlarida kerakli natijaga erishish qaysi omillarga bog'liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda "innovatsiya", "interfaol usullar", "innovatsion texnologiya" to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- O'quv fanining aniq maqsadlarini aniqlash |;
- Fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- Zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- Fanning moddiy va texnik ta'minotni yaratish;
- Ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- O'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotlarini loyihalash.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida ona tili darslarini o'qituvchi pedagog tomonidan samarali tashkil etish o'quvchilarda ham nutqiy ham yozma savodxonligini oshirish, ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun asqotadigan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2012
2. Q.Yunusov. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2005
3. J.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida. Toshkent. 2000